

SURUNKALI RINOSINUSITNI TASHXISLASHDA KOMPYUTER TOMOGRAFIYASINING DIAGNOSTIK SAMARADORLIGINI BAHOLASH

Musulmonov Shohruh Ravshanbekovich

Toshkent Davlat Tibbiyot Universiteti 1 son tibbiy radiologiya kafedrasida assistenti

O'ktamjonova Muazzam

Toshkent Davlat Tibbiyot Universiteti 2-son davolash ishi fakulteti talabasi

Ismatova Aziza

Toshkent Davlat Tibbiyot Universiteti 2-son davolash ishi fakulteti talabasi

<https://doi.org/10.5281/zenodo.19552263>

Dolzarbligi

Surunkali rinosinusit yuqori nafas yo'llarining keng tarqalgan kasalliklaridan biri bo'lib, burun bo'shlig'i va paranazal sinuslarda uzoq davom etuvchi yallig'lanish jarayoni bilan xarakterlanadi. Mazkur patologiya 12 haftadan ortiq davom etishi bilan ajralib turadi va aholining sezilarli qismida uchrashi bilan tibbiyot amaliyotida dolzarb muammolardan biri hisoblanadi. Klinik belgilarning boshqa kasalliklar bilan o'xshashligi tashxis qo'yishda qiyinchilik tug'diradi. Shu sababli aniq va ishonchli diagnostika usullaridan foydalanish, xususan kompyuter tomografiyasining imkoniyatlarini o'rganish muhim ahamiyat kasb etadi.

Kalit so'zlar

surunkali rinosinusit, kompyuter tomografiyasi, diagnostika, paranazal sinuslar, sezuvchanlik, tasviriy tekshiruv

Maqsad

Surunkali rinosinusitni aniqlashda kompyuter tomografiyasining diagnostik imkoniyatlarini baholash hamda uning boshqa tekshiruv usullariga nisbatan ustun tomonlarini ko'rsatib berishdan iborat.

Material va usullar

Mazkur ishda surunkali rinosinusitga oid zamonaviy ilmiy manbalar, jumladan mahalliy va xorijiy adabiyotlar tahlil qilindi. Tadqiqot davomida kasallikning kelib chiqish sabablari, rivojlanish mexanizmlari, klinik belgilar hamda diagnostik yondashuvlar o'rganildi.

Adabiyotlar tahlili shuni ko'rsatdiki, surunkali yallig'lanish ko'pincha yuqori jag' sinusida kuzatilib, bu holat bemorlarning aksariyat qismida aniqlanadi. Ayrim ma'lumotlarga ko'ra, ushbu ko'rsatkich 90 foizdan yuqori bo'lishi mumkin. Bundan tashqari, mikrobiologik tekshiruvlar natijasida aralash bakterial flora ustunligi qayd etilib, u taxminan 40 foizdan ortiq holatlarda uchrashi aniqlangan.

Natija

Tahlillar natijasiga ko'ra, kompyuter tomografiyasi surunkali rinosinusitni aniqlashda yuqori aniqlik va sezuvchanlikka ega usul hisoblanadi. Ushbu tekshiruv yordamida paranazal sinuslarning anatomik tuzilishi, shilliq qavatdagi o'zgarishlar, suyuqlik yig'ilishi hamda polipoz jarayonlar aniq tasvirlanadi.

Ilmiy manbalarda keltirilishicha, KT diagnostikasining sezuvchanligi o'rtacha 85–95 foizni tashkil etadi, aniqlik darajasi esa 90 foizga yaqin bo'ladi. Bu esa ushbu usulning boshqa an'anaviy tekshiruvlarga nisbatan ustunligini ko'rsatadi. Kompyuter tomografiyasi nafaqat sinus bo'shlig'idagi patologik o'zgarishlar, balki Gaymor va Frontal bo'shlig'ini diagnostik baholashda ham ahamiyatli hisoblanadi.

Xulosa

Kompyuter tomografiyasi surunkali rinosinusitni aniqlashda yuqori diagnostik ahamiyatga ega bo'lgan zamonaviy tekshiruv usullaridan biri hisoblanadi. Ushbu usul yordamida sinuslardagi anatomik va patologik o'zgarishlar batafsil baholanadi. Natijada to'g'ri tashxis qo'yish, davolash strategiyasini belgilash va zarur hollarda jarrohlik aralashuvini rejalashtirish imkoniyati oshadi. Shu bois klinik amaliyotda KTdan keng foydalanish maqsadga muvofiqdir.

Adabiyotlar, References, Литературы:

1. Xoliqova F.F., Mamatqulov I.G. Surunkali rinosinusit etiologiyasi va davolash usullari. Samarqand davlat tibbiyot universiteti, 2023.
2. Bhattacharyya N., Fried M.P. The accuracy of computed tomography in the diagnosis of chronic rhinosinusitis. Otolaryngology–Head and Neck Surgery, 2003.
3. Cummings C.W. Otolaryngology: Head and Neck Surgery. Elsevier, 2020.
4. Lund V.J., Kennedy D.W. Rhinosinusitis: Pathophysiology and Management. 2018.